

## TIBBIY TERMINSHUNOSLIKDA OTORINOLARINGOLOGIYA SOHASINING TUTGAN O'RNINI

Kalimbetova Dilnoza Azamatovna

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19853622>

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ishda terminshunoslikda tibbiyot terminlari, asosan otorinolaringologiya sohasidagi terminlarning paydo bo'lishi, LOR sohasining alohida fan sifatida shakllanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bugungi kungacha tibbiyot leksikasining tarkibiy leksik qatlami hisoblangan otorinolaringologiya (LOR) terminlari masalalariga oid amalga oshirilgan ishlar nisbatan kamchilikni tashkil etsa-da, umumiy tibbiyot leksikasi bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar bajarilganini urg'ulash maqsadga muvofiq.

**Kalit so'zlar:** LOR, leksik qatlam, tibbiyot, termin, leksema, leksika.

Ba'zi manbalarda qayd etilishicha, otorinolaringologiya sohasi alohida fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada paydo bo'lganligi ta'kidlanadi. Uning terminologik tizimining asosini esa LOR organlarining xalqaro anatomik terminlari va leksemalari tashkil etadi. 1892-1893-yillarda A.Vilare tomonidan nemis tilida chop etilgan ilk "Tibbiyot ensiklopedik lug'ati"da LOR leksikasiga oid lotincha auricula (quloq suprasi), meatus acusticus externus (quloqning eshitish kanali), plexus cervicalis (tomoq tomirlarini tutashuvi), cochlea (quloqning tovush qabul qiladigan qismi, naycha) kabi sohaga oid terminlarning ma'nolari lotin tili transkripsiyasi asosida berilgan.

Shuni ham qayd etish lozimki, olimlar otorinolaringologiya tushunchasini ikki xil yondashuv asosida talqin qilishadi. Birinchi toifaga kiruvchi olimlar otorinolaringologiya sohasi XIX asr o'rtalarida tibbiyotning xirurgiya va terapiya yo'nalishlaridan mustaqil soha sifatida ajralib chiqqanligini ta'kidlashsa, ikkinchi guruh olimlari bu sohadagi tadqiqotlar XX asr o'rtalariga kelib O'rta Osiyo universitetlarining birida professor S.F. Shteyn tomonidan ma'lum bir markazlar tashkil qilinganini qayd etishadi. LOR sohasi bilan bog'liq muayyan xususiyatlar hamda munosabatlar mazkur yo'nalish tibbiyot sohasining bir tarmog'i sifatida hozirgi kungacha tabobat kategoriyasi sifatida ko'plab chet ellik va mahalliy olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan va hozirgi kungacha qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. LOR sohasiga Q.J. Mirazizov, A.I. Mo'minov, A.N. Dadamammedov, G'.Q. Ibrohimov, S.A. Hasanov, K.A. Xo'jayev, A.M. Hakimov kabi olimlar tibbiy yo'nalish sifatida o'z hissalarini qo'shishgan bo'lsa, mazkur soha leksikasiga quyidagi olimlar tilshunoslik aspekti nuqtayi nazaridan yondashishgan: E.A. Korjavix, F.G.Ivanova, O.B.Burdina, S.I.Balishin, A.A.Grosheva, Ye.V.Smirnova, L.V.Dubrovina, N.I. Melklo kabi olimlarning bu sohada bilvosita xizmatlari beqiyosdir [1, 58].

Tadqiqotga oid to'plangan materiallarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hatto, aksariyat tilshunos tadqiqotchilar tibbiyot sohasida faol qo'llaniladigan otorinolaringologiya bilan otolaringologiya terminlari ifodalaydigan tushunchalarning farqiga deyarli borishmaydi. Aksariyat hollarda yozma va og'zaki nutqda mazkur ikki termin bir-birining o'rnida bemalol ishlatilish holatlari ham uchrab turadi. Otorinolaringologiya termini otolaringologiya terminiga nisbatan kengroq tushunchani anglatib, u burun va sinus kasalliklarini o'z ichiga oladi, otolaringologiya terminining semantik ko'lamida esa quloq va tomoq kasalliklarini davolashga ko'proq e'tibor berish mazmuni aks etgan. Otorinolaringologiya termini quloq, burun va tomoq hamda uning atrofida joylashgan tana a'zolari kasalliklarini o'rganadigan fan tushunchasidan

tashqari, insonning eshituv fiziologiyasi, uning buzilishi va shunga aloqador kasalliklarni o'rganish (audiologiya), ovoz fiziologiyasi, uning o'zgarishi va bu o'zgarishlarni keltirib chiqargan kasalliklarni o'rganish (foniatriya), quloq og'ir bo'lib qolishi, karlik sabablarini o'rganish (surdologiya) ham otorinologiya terminining semantik qurshoviga kiradi. Normal va patologik sharoitda ichki quloq (asosan, labirint)ning bosh miyaning turli bo'limlari bilan aloqasini o'rganadigan soha esa otonevrologiya termini bilan ifodalanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, tilda muayyan soha terminlari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, balki ular hayotiy real ehtiyoj va zarurayotga ko'ra yuzaga kelib, shakllanadi va til taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib boradi yoki leksik-semantik, fonetik-fonologik jihatdan ma'lum o'zgarishlarga uchraydi.

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha: "Terminlar umumadabiy so'zlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni o'zida mujassam etadi. O'ziga xos ushbu farq quyidagi xususiyatlarda o'z aksini topadi. 1. Semiotik xususiyatlariga ko'ra. Bunda, sohaviy terminlarda belgi va ifodalovchi o'zaro simmetrik lisoniy munosabatga kirishadi; 2. Funktsional, ya'ni vazifaviy xususiyatga ko'ra. Bunda, terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ajralib turadi; 3. Semantik xususiyatiga ko'ra. Bunda, sohaviy terminlar faqat maxsus tushunchalarni ifodalaydi, ularning har biri o'z ma'nosiga ko'ra unikalligi bilan tavsiflanadi; 4. Ommalashish xususiyatiga ko'ra. Bunda, faqat ilm-fan tiliga oid terminlar ma'lum qismining umumadabiy tilga kirib kelishi ularning boshqa terminologik sistemaga xosligiga to'sqinlik qilmaydi; 5. Hosil bo'lish, shakllanish yo'llari va vositalariga ko'ra. Bunda, sohaviy terminologiyada umumadabiy til so'z yasash vositalarining harakati maxsuslashgan va standartlashgan hamda turg'un modellarni ishlab chiqishga bo'ysunadi ... [2, 137]". Shuningdek, X.Sh.Narxodjayeveaning e'tirof etishicha, "...terminlar ilmiy uslubning tayanch birligi sifatida fanga oid bilimlarni aks ettirish jarayonida uning qay darajada rivojlanganligi, til sohiblarining ilmiy tafakkuri, bilim darajasi haqida ham keng ma'lumot beradi" [3, 5].

Yuqoridagilardan mulohaza qilish mumkinki, fanda qo'llaniladigan va mavjud bo'lgan leksik birliklar va tushunchalar majmui qat'iy ilmiy terminologik tizimga ega bo'lmasa mazkur fan sohasining, shu jumladan LOR leksikasini ham samarali rivojlanishi ancha qiyin kechadi. Zero, zamonaviy otorinologiyaning dinamik shaklda rivojlanishi, uning tadqiqot doirasini yanada kengayib borishi, ushbu tibbiyot tarmog'i ixtisoslashuvining ma'lum darajada o'sishi, mazkur yo'nalishga oid ilmiy izlanishlarni tobora tezlashib borayotgan sur'atlari va bu jarayon bilan uzviy bog'liq ravishda ko'plab yangi ilmiy tushunchalar, terminlarni paydo bo'lishi LOR leksikasining so'z boyligi muntazam shaklda to'ldirilib borilishidan dalolat beradi. Shunday ekan, bo'lajak hamda bugungi zamonaviy hayotdagi LOR mutaxassislari o'z sohasiga doir yangi terminlar va leksik birliklarning qanday asl ma'no va mazmun kasb etishidan so'zsiz boxabar bo'lishlari talab qilinadi. Chunki, o'n yillar oldingi LOR leksikasi bilan hozirgi otorinologiyaning maxsus tili tarkibini tashkil qiluvchi til birliklarining funksional-semantik jihatdan tafovutli jihatlari ancha katta ekanligi kuzatiladi. Buning asosiy sababi so'nggi yillarda ilm-fan, texnika-texnologiya va tibbiyot sohasida erishilgan samarali yutuqlar hamda zamonning tez sur'atlarda rivojlanib borayotgani bilan izohlanadi. Zamonaviy otorinolog mutaxassisi nafaqat LOR a'zolari va unga tegishli sohalarni, balki tibbiyotning tarkibiy yo'nalishlari hisoblangan odam anatomiyasi, normal va patologik fiziologiya, fizikaning ayrim sohalari, xususan akustika va mexanika, nevrologiya, neyroxirurgiya, oftalmologiya, yuz-jag' xirurgiyasi, terapiya, allergologiya, dermatologiya, immunologiya va boshqa sohalarni

bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega bo'lishi lozim. Mazkur bilimlar majmuini puxta egallashida u LOR sohasi tilini, ya'ni leksikasini tashkil qiluvchi til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini ham yaxshi va chuqur o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

LOR terminologiyasi tibbiyot leksikasining tarkibiy leksik qatlami hisoblanganligi sababli mazkur sohada qo'llaniladigan termin va leksemalar, shuningdek, iboralarning miqdori 650-800 tani o'z ichiga oladi. Biroq, bu ko'rsatkich, kun-sayin oshib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri turli tillardagi tibbiyot ma'lumotlari hajmining doimiy o'sishi orqali ko'plab yangi terminlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi, albatta. Darvoqe, umumadabiy tilning tarkibiy leksik qatlamlari eng o'zgaruvchan va ta'sirchan qismi hisoblanib, u muntazam ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy – madaniy va tarixiy ta'sirlarni “boshdan kechiradi”. Bu jarayonga tilshunoslikda ekstralingvistik omillar sifatida qaraladi. Natijada, zamonaviy til leksik sistemasida turli xil terminlar muomalaga kirib keladi va ba'zilar esa muomaladan chiqib arxaik so'zlar qatoridan o'rin oladi. Ma'lum sohaviy terminlarning leksik-semantik, struktur-semantik va funksional jihatlarini atroflicha va chuqur tahlil hamda tadqiq etish tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda sohaga oid ilmiy tushunchalarni lingvistik jihatdan ifodalash muammolari, til birliklarining semantikasi va leksik elementlar o'rtasidagi o'ziga xos nozik munosabatlar, ularni terminologik belgilar, mezonlar va tamoyillarga asoslangan holda atroflicha tahlil etish maqsadga muvofiq.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Сапаева Д.Н. Инглиз ва ўзбек тилларида тиббиёт лексикасининг таркибий-структур хусусиятлари (дерматовенерологияга оид лексикалар мисолида). Автореф. дисс...ф.ф.д (PhD). Тошкент: 2022. 58 б.
2. Даниленко В.П. Актуальные направления лингвистического исследования русской терминологии // Современные проблемы русской терминологии. - М.: 1986.-137 с.
3. Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусияти. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автор. – Тошкент, 2017. – С.5.